

QADIMIY QUVANING TARIXINING O'RGANGAN OLIMLAR

Ma'murov Diyorbek Saydullo o'g'li

Fardu 3- bosqich talabasi

ANNOTATSIYA

Tariximizning boshqa jabhalari singari, uzoq tarix bo'lib qolgan, o'tmishning beayov ziddiyatlari tomonidan vayronaga aylangan Quva shahri tarixi haqida arxeologik yodgorliklar bilan birga juda ham kam saqlangan yozma ma'lumotlarga gagina egamiz. Shahar va shahar atrofidagi qishloqlarda saqlanib qolgan arxeologik yodgorliklarni ma'lum darajada o'rganilishi qadimiy Qubo haqida ba'zi bir fikrlarni bayon etish imkonini beradi.

Kalit so'zlar: Quva, Davan, arxeologiya, rabotlar, shahriston, buddaviylik ibodatxonasi, tangalar, shishasozlik.

Quva va Davan davlati to'g'risida dastlabki ma'lumotlar mil. avv. II asrga mansub Xitoy manbalarida keltirilgan. O'sha davrda Quva kengayib qo'handiz, shahriston va rabod kabi uch qismdan iborat bo'lган.

Iskandar Azimovning «Farg'ona vodiysining arxitektura yodgorliklari» (Toshkent, 1986) kitobida yozilishicha, arxeologlar Quvada qadimiy turarjoy binolari hamda VI–VII asrlarga oid Buddha ibodatxonalari xarobalarini topdilar. Qazilma ishlari jarayonida tuproq ostidan tangalar zargarlik buyumlari, uy-ro'zg'orlarda ishlatiladigan temir, bronzava sopol buyumlar chiqdi. Ibodatxona tarhini chizgan me'mor o'zining yuksak mahorat sohibi ekanligini namoyish etgan. U tasviriy san'at, xaykaltaroshlik va me'morchilik namunalaridan shu qadar unumli foydalana bilganki, buni o'sha yerdan topilgan qadimiy xaykaltaroshlik hamda devoriy tasvir qoldiqlari yaqqol ko'rsatib turibdi. Mazkur noyob asarlar aholining g'oyaviy mosligini va Farg'ona vodiysida bunday madaniyat yuksak darajaga ko'tarilganini o'zida ifoda etgan.

Hozirgi Quva markazida mahalliy aholi «Shahriston» deb ataydigan va bir necha gektar maydonni egallagan tepaliklar yastanib yotadi. Ular o'z bag'rida ming yillik tariximiz sahifalarini yashirib yotibdi.

Ko'hna Quva shahristonida XX asr boshlariga qadar Bilol ota mozori bo'lган¹. Bu mozor aynan arablar istilosidavrida buzib tashlangan ko'handiz, ya'ni arki a'loning

¹ Маъз ибн Жабал тўлиқ исми Абу Абдураҳмон ал-Ансорий ал-Хазражий ал-Жашмий (640 йили вафот этган) гарчанд Мовароуннаҳрга келмаган бўлса-да, бироқ унинг номи билан боғлик зиёратгоҳларнафақат Фарғона заминида балки Хоразмда ҳам мавжуд бўлган. Марғilonдаги унинг номи биланаталувчи зиёратгоҳ ҳалқ орасида Хўжа Мағиз, Ҳасти Маъз мозори деб ҳам аталади. Санкт-Петербургдаги Салтыков-Щедрин номли кутубхонасининг шарқ кўлёзмалари бўлимида Хўжа Маъз зиёратгоҳига доир бир қанча хужжатлар сакланган

o‘rnida joylashgan edi. Arkning buzib tashlanganligi haqida X asrda yashab o‘tgan arab sayyoohlarining asarlarida ham ma’lumotlar uchraydi¹. Biroq bu muhim emas. 1963-yili ko‘handizda arxeologik qazishmalarni olib borgan V.A.Bulatova bu yerda IX–XI asrlarga mansub qabrlarni aniqlagan edi².

Tarixchi Tabariy o‘zining tarixiy asarida Qubo (Quva) shahri atroflarida arablar bilan quvaliklar o‘rtasida bo‘lib, o‘tgan janglar haqida ma’lumot beradi. Demak, bu qabrlar aholi o‘rtasida qadimgi davrlarda muslimmonlar va g‘ayridinlar o‘rtasidagi jangda o‘ldirilgan shahidlar qabri degan qarashlarni keltirib chiqargan va bu o‘z navbatida bu yerda keyingi davrlarda muqaddas mozorning paydo bo‘lishida muhim ahamiyat kasb etganligi ehtimoldan holi emas³.

IX–XII asrlarda Quva Farg‘onaning yirik, ko‘rkam va obod shahriga aylangan. Istanxriyning ta’kidlashicha, Quva kattaligi jihatidan Farg‘onada Axsikatdan keyin ikkinchi shahar hisoblangan. Ibn Havqalning yozishicha, Quva Sayxun (Sirdaryo)gacha yetib boradigan nahr sohilida qad ko‘targan. Uning markazida Registon maydoni, ko‘handizda jome masjidi, rabodida esa saroy, qamoqxona va bozorlari joylashgan. Quva mo‘g‘ullar istilosiga qo‘shilgan vayron etilib, XIV–XVI asrlarda qasaba shaklidagi maskanga aylangan. Yoqut Hamaviy Quvani katta shahar deb ataydi. Shahar Mahmud Qoshg‘ariyning «Devonu lug‘otit turk» asariga ilova qilingan xaritasida ko‘rsatilgan. Quvada hunarmandchilik rivojlangan. Temirchilik va shishasozlik yuksak darajaga yetgan, shaharning o‘z tangasi zarb qilingan. «Boburnoma»da Quva Andijondan 4 og‘och (farsax) narida joylashgan qishloq deb aytiladi⁴.

Tarixchi A.Muhammadjonovning fikricha, shahar nomi «Qaviybod», «Qavobod» yoki «Qaybod» shakllarida talaffuz etilgan va qaviyarning qarorgohi, tojdor hukmdorning kayoniy taxti o‘rnatilgan qasr va mamlakatning bosh shahri — poytaxt ma’nosini anglatgan. Keyinchalik o‘zgarib Quva shaklini olgan⁵.

Quva o‘rta asr manbalarida esa «Qubo», ma’lumotlarga ko‘ra 12 hektar maydonni egallaydi. Uni arxeologik o‘rganishda B.A.Latinin, V.D.Jukov, A.H.Bernshtam, V.A.Bulatova, I.Asqarov va Y.A.Zadneprovskiy larning xizmatlari kattadir. Ular yodgorliklarni o‘lchash, tarkini chizish va madaniy qatlamlarni tadqiq etishda birinchi arxeolog olimlar xisoblanadilar. Ayniqsa, Y.A.Zadneprovskiy dastlabki o‘rganish

бўлиб, уларда мозор номи Ҳазрат Маъзоз ибн Жабал дея тилга олинади.

¹ Бетгер Е. К. Извлечение из книги “Пути и страны” Абу-л-Касыма Ибн-Хаукаля // Труды САГУ. – Т., 1957 №4. – С.13.

² Булатова В. А. Некрополь X–XI вв. В Куве // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск. 6. – Т., 1965. – С. 67.

³ Абдулаҳатов Н. Кўхна Кува зиёратгоҳлари ... – Б. 97.

⁴ Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Қ” харфи. – Б. 339. www.ziyouz.com кутубхонаси.

⁵ Муҳаммаджонов А. “Кува” ёки “Кубо” топоними ва “Кубод” атамасининг этимологик асослари. Ўзбек тили ва адабиётн, 2008. №3. –Б. 41–46.

natijasida Qubo (Quva) eng quyi qatlamlarini milodiy I-II asrlarga oiddir degan fikrini bildiradiki, bu hozircha o‘z kuchini yo‘qotgani yo‘q¹.

Quva shahri xarobasini muntazam o‘rganish 1956-yildan boshlandi. Shu yili O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Tarix va arxeologiya instituti Quva shahristoni va arkida ish boshladi. Bu ishlarda akademik Y.G‘ulomov rahbarligida arxeologlardan M.Aminjonova, V.A.Bulatova, V.D.Jukov, H.Muhammedov, A.R.Muxammadjonovlar faol qatnashdilar. Shahristondagi shimoliy-g‘arbiy kuzatuv minorasi, mudofaa devoriga yaqin shahar dahalari (kvartallari) qisman kovlab ochib o‘rganildi. Akademik Y.G‘ulomovning rejasiga ko‘ra, Quva shahar xarobasi qismlarga bo‘linib, chuqur tahlil qilib o‘rganilishi kerak edi. Ya’ni mudofaa devorini X.Muhammedov, madaniy qatlamlari va ularni davriylashtirish I.Ahrorov, arkni V.A.Bulatova, D.P.Varxotova yoki bo‘lmasa sopollarni va shisha idishlarni alohida tatqiq etilishi kerak edi. Juda katta qazishma ishlari olib borildiku, lekin afsus bu boshlangan ish oxiriga yetmay qoldi. V.A.Bulotovaning Quva budda ibodatxonasi va uning yaqinidagi turar joylarga bag‘ishlangan kitobchasi bundan mustasnodir. Bu kitob 1972-yilda nashr etilgan bo‘lib, kitobda 1956-1965-yillarda o‘tkazilgan arxeologik kuzatishlarning natijalari tadrijiy ravishda yoritilgan. Kitobda ma’lumot berilishicha Quva tumanining arxeologik xaritasini chizgan V.D.Jukov, 26 ta vayrona tepalikni o‘rganib, uni xaritaga kiritgan I.Axrarov va D.P.Varxotova singari arxeologlarning xizmatlaridan xabardor qiladi. V.A.Bulotovaning fikriga ko‘ra, Quvada 30 dan ortiq arxeologik yodgorliklar mavjud bo‘lib, ularni uch guruhga bo‘lish mumkin. Bular miloddan oldingi eraning I asridan yangi eraning VII asrigacha bo‘lgan bir qator qatlamlari va I-XIII asrlarga oid ko‘p qatlamlari tepaliklardir. Arxeologlarni ko‘proq qiziqtirayotgan yodgorliklar uchinchi guruhga tegishli bo‘lib, Qadimgi Qubo xarobalari bularning eng ahamiyatlisisidir. Xarobalar 12 gektardan ortiq maydonda yastanib yotibdi. Shahriston ravotlardan iborat bo‘lgan qadimiy shahar kun chiqar, kun yurar va kun botar tomonlardan rovotlar bilan o‘ralgan bo‘lib, shahar va rovotlar oralig‘i bir yarim kilometrbo‘lgan.

I.Axrarovning tatqiqotlari shuni ko‘rsatadiki, Quva V.V.Bartold yozganidek, X asrga emas, balki XIII asrgacha, ya’ni mo‘g‘il bosqinchilari davriga qadar ham ma’lum va mashhur bo‘lgan. 1991-yil Toshkentda «Kamalak» nashriyotida Samarqand, Buxoro, Xorazm va Farg‘ona tarixiga oid yodgorliklar asosida juda foydali va tarixiy qimmatga ega bo‘lgan kitob chiqarildi. Ana shu to‘rt tarixdan biri hamyurtimiz Isoqjon Junaydilloxo‘ja **o‘g‘li** brat qalamiga mansub «Farg‘ona tarixi» kitobidir. Ana shu kitobda keltirilgan «... Farg‘ona bir shahri qadimdirki, avvalo Iskandari Rumiyidan va Qubodu Afrosiyobdan qolgandir. Farg‘ona bino bo‘lmasdan bino bo‘lgan Qubo shahri

¹ Анорбоев А., Исломов Ў.И., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Т.: Фан, 2001. – Б. 44.

bo‘lib, anda mo‘g‘ullar podshohlaridan Xushdod degan qalmoq hukumat surib, ma’jusiylar qo‘lida edi. Ka’b ul-Abror boshchiligidagi kelgan arab lashkarlari bu yerda qalmoqlardan yengilgach, ikkinchi bor Muhammad ibn Abdulloh Jarir kelib, Quboda Xushdodni o‘ldirib, so‘ng Axsi va Kosonga borganligi ma’lum. Bu yerlarga Qutayba ibn Muslim kelguniga qadar Sulton Maxmud Sabuk Tegin zamonida Quboda shahri obod bo‘lib, Yagu ibn Tagan hukm surib, adl va xaqqoniyat ila mashhur bo‘lib edi».

XULOSA

Yuqorida keltirilgan malumotlardan ko‘rinib turibdiku qadimi Quva juada ham katta tarixga ega. Uning tarixi miloddan avvalgi asrlarga borib taqaladi. Hozirgi kunda quva tarixini o‘rganishda asosan arxeologik manbalarga tayanilmoqda. Bunga asosiy sabab o‘sha davrdagi yozma tarixiy manbalar bosqinchilar tomonidan yoq qilingani di. Shunga qaramay quva tarixini o‘rganishda arab va xitoy tilli manbalar orqali o‘rganish davom etmoqda. Manashu yozma manbalar va xozirgi kunda olib borayotgan arxeologik tadqiqotlar bir biriga solishtirish orqali o‘sha davrning asl tarixini o‘rganish ishlari olib borilmoqda. Bu kabi tadqiqotlarda zamonaviy texnalogiyalardan ham keng foydalanib kelinmoqda.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI: (REFERENCES)

1. Бетгер Е. К. Извлечение из книги “Пути и страны” Абу-л-Касыма Ибн-Хаукаля // Труды САГУ. – Т., 1957 №4. – С.13.
2. Булатова В. А. Некрополь X-XI вв. В Куве // История материальной культуры Узбекистана. Выпуск. 6. – Т., 1965. – С. 67.
3. Абдулахатов Н. Кўҳна Қува зиёратгоҳлари ... – Б. 97.
4. Ўзбекистон миллий энциклопедияси. “Қ” ҳарфи. – Б. 339. www.ziyouz.com кутубхонаси.
5. Мухаммаджонов А. “Қува” ёки “Қубо” топоними ва “Қубод” атамасининг этимологик асослари. Ўзбек тили ва адабиётн, 2008. №3. –Б. 41-46.
6. Анорбоев А., Исломов Ў.И., Матбобоев Б. Ўзбекистон тарихида қадимги Фарғона. – Т.: Фан, 2001. – Б. 44.